

## INSON MA'NAVYI QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O'RNI

Rashidova Mashhura Karimovna

Renessans talim univ. "Ijtimoiy-siyosiy fanlar"

kafedrasi dotsenti, falsafa fanlar nomzodi

Buronova Nigora Azamkulovna

Renessans talim univ. "Ijtimoiy-siyosiy fanlar"

kafedrasi dotsenti, tarix fanlar nomzodi.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kun yoshlarining ong-shuurini, tafakkurini to'g'ri shakllantirish, ma'nau, aqlan, jismonan va ruhan sog'lom tarbiyalash har qachongidan ham dolzarbligi, inson ma'naviy qiyofasini shakllantirishda axloqiy fazilatlarning barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom avlod, ma'naviy barkamol inson, komil inson, falsafiy, axloqiy, ma'naviyat, ma'rifat, halollik, poklik, mardlik

Hozirgi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqqa zid bo'lgan harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Bugungi globallashtirilgan XXI asrda yoshlarni axloqimizga zid bo'lgan illatlardan himoya qilish dolzarb vazifadir. Go'zal axloq va odob bilan belgilangan ma'naviy fazilatlar insonlar o'rtasidagi barcha munosabatlarga singib ketganidan keyingina chinakam axloqiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham axloqiy qadriyatlar barcha davrlarda insonning ma'naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etish imkoniyati inson shaxsini tarbiyalash orqali yaratilgan.



Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezonini, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yangilanishlarning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirayotgan muhim omillar bevosita axloqning ma'naviyat tizimida muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Axloq normalari bir xalqdan boshqa xalqlarga, avloddan avlodga o'tib, boyib, takomillashib boradi. Mukammal axloq va komil inson haqidagi tushunchalar har bir davrning imkoniyatlari va mezonlari asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan bog'liq turli holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o'z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma'naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o'rinlidir."<sup>52</sup>

Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va axloq-odobli, bilim saviyasi yuqori zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar oilada va jamiyatda ko'zlangan maqsadlarga erisha olmaydilar. Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan. Barkamol inson deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jisimoiy kamol topgan shaxs tushuniladi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astranomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir.

<sup>52</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008. 10-b.



Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga tariximizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Kaykovusning "Qobusnoma" asari, Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub", Davoniyning "Axloqi Jaloliy" kabi asarlarida sog'lom va barkamol insonni shakllantirish mazmuni, yo'llari, shakllari hamda usullari yoritiladi. Shunday asarlardan biri Kaykovusning "Qobusnoma" asaridir. Ming yilga yaqin davrlardan beri xalqni ayniqsa yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo'llanma bo'lib kelayotgan "Qobusnoma" asari<sup>53</sup> hozirgi o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy komolotga yetkazishda muhim o'rin kasb etmoqda. Bu asar juda ko'p sharq va g'arb tillariga tarjima qilingan. 1860 yilda "Qobusnoma" asari birinchi marta buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan.

Ushbu asar muqaddima va qirq to'rt bobdan iborat. Muqaddimada asarning nomlanishi va Gilonshoh o'ajarasi xususida yozib, "Ey farzand, ikki tarafdin sening asling va nasabing pokdur va ulug'dur" deydi. Kaykovus "Qobusnoma" asarida ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq ilm, ilm bilan bog'liq bo'lgan kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat. Ilm olish yo'lga kirgan toliblarga hamma vaqt parhezli va qanoatli bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun uni takrorlab borish, ilmda haqiqat uchun kurashish, oz so'zlab ko'p tinglash haqida gapiriladi.

Kaykovus inson tarbiyasiga katta e'tibor beradi. U axloqlilikning birinchi belgisi suhandonlik deb, suhandonlik (notiqlik)da rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. Kaykovus asarining 5-bobi "Ota ona haqqini bilmoq zikrida" deb nomlanadi. O'sha muallif "Qur'on" va "Hadis" lardan kelib chiqib: "O'z farzandingning sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim, sen ota-onang haqingda nima qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydur", deb yozadi.

<sup>53</sup> Qarang., Kaykovus "Qobusnoma". – T., "O'qituvchi" NMIU.2011





Kaykovusning hayotga xulq-odob qoidalariga qanday rioya etgani haqidagi fikrlari ajoyibdir. Bu borada uning yoshlarni adolatsevar, insonparvar, sahovatli, sabr-qanoatli, muruvvatli, to'g'ri so'z, rostgo'y bo'lish haqidagi qarashlari mavjud. U asar barcha davrda ham o'z qiymatiga ega.

Buyuk ajdodlarimizning ilm-fanga, tarbiyaga oid qarashlari hozirgi kunda millatimiz uchun juda muhim va dolzarbdir.

Insonning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berilgan. Ajdodlarimiz faqat oiladagina shakllanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, rostgo'ylik kabi bir qator insoniy fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birgalikda insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak sifatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlari va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, badiiy-ilmiy, she'riy va nasriy qarashlarida ifodalab berganlar.

Bugungi kunda har bir yoshni barkamol inson bo'lib tarbiyalash davr talabi ekanligini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Davlatimiz qonunlarida yosh avlodni axloqiy-estetik kamolotini ta'minlashda, uning barkamol bo'lib o'sishida eng asosiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'inlarni qamrab olib, farzand tarbiyasida ota-ona va ustoz muallimga eng asosiy vazifalarni yuklaydi. Zero, V.Gyugo ta'biri bilan aytganda: "Insonning ulug'ligi bo'yi bilan o'lchanmaganidek, xalqning ulug'vorligi ham uning soni bilan o'lchanmaydi: yagona o'lchov, uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir".

Buyuk allomalarimizning hayoti, ilmi va tafakkuriga beqiyos ta'sir ko'rsatgan va ular hayotining asosiy qonuniyati bo'lib qolgan muqaddas islom dinimizning xaqqoniyligi va pokligini, insonparvarligi va bag'rikengligini, odamzotni doimo ezgulikka chorlashini anglatgan holda yosh avlodga tushuntirish va ko'nikmalar berish tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishishdagi asosiy vositalardandir. Alloma Demokrit aytganidek, "Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa tarbiyadir". Shu bois yosh avlodni milliy urf-odatlar, milliy



qadriyatlar, axloqiy fazilatlar, estetik omillar va vositalar asosida tarbiyalash nazariyasini yaratish, boyitish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Axloqiy tarbiya inson uchun, xalqona qilib aytganda, beshikdan to qabrgacha asqotadi. Tarbiya go'dakdagi axloqiy mohiyatini yuzaga chiqarishi uchun, unda axloqiy yo'nalmalarning, xulq va odatlarning shakllanishiga xizmat qiladi, axloqiy taqiqlarining mohiyatini bola ongiga singdiradi. Kattalarda esa o'z-o'zini tarbiyalash xislatini paydo qiladi va rivojlantiradi, ularni ongli axloqiy tanlov bilan ish ko'rishga o'rgatadi. Axloqning tarbiyaviy vazifasini amalga oshirishda turli xil vositalar va omillar ishtirok etadi. Jumladan, pand-o'git, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari v.h.

Shu munosabat bilan davlatimiz tomonidan ham ma'naviy-axloqiy, ham jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berib, yuksak ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyov tomonidan ilgari surilgan muhim 5 tashabbus yoshlarning intellektual salohiyatini, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini aniqlash va uni maqsad sari samarali yo'naltirish, har bir yosh o'smiringa hayotiy pozitsiyasini belgilash sharoitini yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamirida yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlash, yurtimiz kelajagi, ertamiz egalari bo'lmish yoshlarga bildirilgan katta ishonch yotadi.

Xulosa qilib aytganda, inson borliqdagi eng buyuk zotdir. Insonning axloqiy hayoti esa uning axloqiy tarbiyasi bilan bog'liqdir. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biridir. Shu tariqa, komil insonning o'ziga hos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu – armoni deb qaralgan.

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi etikada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero,

eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan etika o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda etikani yanada rivojlantirish, yosh avlodni axloqiy ong va hissiyotlar, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan axloqiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. Ushbu Farmon «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 8 fevraldagi 28 (6722)-sonida e'lon qilingan.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.:Ma'naviyat, 2016.
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
4. Kaykovus “Qobusnoma”. – T., “O'qituvchi” NMIU.2011
5. <https://lex.uz/ru/docs/4381463>
6. [www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)
7. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz)